SCIENCE CONNECTS PEOPLE

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF

2026 / No. 1(1)

Contemporary Pedagogical and Philological Research

ULUG‘BEK HAMDAM SHE’RIYATIDA POETIK IDROK VA TALQIN QIRRALARI

Ahmedova Baxtigul Umariddin qizi

Osiyo texnalogiyalar universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyatining taniqli vakili Ulug‘bek Hamdam ijodida poetik idrokning o‘ziga xos xususiyatlari, inson ruhiyati va ichki kechinmalarining badiiy-falsafiy talqini tahlil etilgan. Shoir she’riyatida inson va borliq munosabati, o‘zlikni anglash, ruhiy iztirob, ma’naviy uyg‘onish, muhabbat, sog‘inch, yolg‘izlik va hayot mohiyatini izlash kabi masalalarning ifodalanishiga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, “Tangriga eltuvchi isyon”, “Seni kutdim” to‘plamlari hamda “Sevgi meni dunyodan asrar”, “Bahor” she’rlari misolida ramziy-metaforik obrazlar, badiiy tasvir vositalari va lirik qahramon ruhiyatining poetik ifodasi tahlil qilingan. Shoir ijodida milliy adabiy an’analar va zamonaviy poetik tafakkurning o‘zaro uyg‘unligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ulug‘bek Hamdam, zamonaviy o‘zbek she’riyati, poetik idrok, lirik qahramon, inson ruhiyati, falsafiy lirika, ruhiy iztirob, ma’naviy uyg‘onish, o‘zlikni anglash, ramz, metafora, muhabbat motivi, yolg‘izlik, sog‘inch, badiiy tafakkur.

Аннотация. В данной статье рассматриваются своеобразие поэтического восприятия в творчестве известного представителя современной узбекской поэзии Улугбека Хамдама, а также художественно-философское осмысление человеческой души и внутренних переживаний. Особое внимание уделяется отражению в поэзии автора таких проблем, как взаимоотношения человека и бытия, самопознание, душевные переживания, духовное пробуждение, любовь, тоска, одиночество и поиск смысла жизни. На примере сборников «Восстание, ведущее к Богу» («Tangriga eltuvchi isyon»), «Я ждал тебя» («Seni kutdim»), а также стихотворений «Любовь спасает меня от мира» («Sevgi meni dunyodan

asrar») и «Весна» («Bahor») анализируются символико-метафорические образы, художественные средства выразительности и поэтическое воплощение внутреннего мира лирического героя. Раскрывается взаимосвязь национальных литературных традиций и современного поэтического мышления в творчестве поэта.

Ключевые слова: Улугбек Хамдам, современная узбекская поэзия, поэтическое восприятие, лирический герой, человеческая душа, философская лирика, душевные переживания, духовное пробуждение, самопознание, символ, метафора, мотив любви, одиночество, тоска, художественное мышление.

Abstract. This article examines the distinctive features of poetic perception in the works of Ulugbek Hamdam, a prominent representative of contemporary Uzbek poetry, focusing on the artistic and philosophical interpretation of the human soul and inner experiences. Particular attention is paid to the expression of such themes as the relationship between the individual and existence, self-awareness, spiritual suffering, spiritual awakening, love, longing, loneliness, and the search for the meaning of life. Through an analysis of the poetry collections Rebellion Leading to God (Tangriga eltuvchi isyon) and I Waited for You (Seni kutdim), as well as the poems Love Saves Me from the World (Sevgi meni dunyodan asrar) and Spring (Bahor), the article explores symbolic and metaphorical imagery, artistic expressive devices, and the poetic representation of the lyrical hero‘s inner world. It also highlights the interaction between national literary traditions and modern poetic thinking in the poet’s works.

Keywords: Ulugbek Hamdam, contemporary Uzbek poetry, poetic perception, lyrical hero, human soul, philosophical poetry, spiritual suffering, spiritual awakening, self-awareness, symbolism, metaphor, motif of love, loneliness, longing, artistic thinking.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida insonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va borliq haqidagi falsafiy mushohadalarini badiiy ifodalashga intilish kuchayib

bormoqda. Ayniqsa, mustaqillik davri adabiyotida shaxsning o‘zligini anglashi, hayot mohiyatini tushunishga intilishi, ruhiy erkinlik va ma’naviy izlanish masalalari she’riyatning muhim mavzularidan biriga aylandi. Bu jarayonda an’anaviy poetik tafakkur bilan zamonaviy badiiy idrokning o‘zaro uyg‘unlashuvi kuzatiladi.

Ulug‘bek Hamdam ana shu adabiy-estetik jarayonda o‘ziga xos ijodiy qiyofaga ega bo‘lgan shoir va adib sifatida namoyon bo‘ladi. Uning she’riy ijodida inson va olam munosabati, ruhiy iztirob, ma’naviy uyg‘onish, ilohiy haqiqatni izlash, hayotiy ziddiyatlar kabi masalalar chuqur falsafiy mazmun kasb etadi. Ulug‘bek Hamdam she’riyatini o‘rganishda poetik idrok tushunchasiga alohida e’tibor qaratish lozim. Poetik idrok badiiy ijodkorning borliqni o‘ziga xos tarzda anglash, his etish va obrazlar vositasida ifodalash qobiliyatidir. U shoirning dunyoqarashi, estetik ideali, hayotiy tajribasi hamda ruhiy olami bilan chambarchas bog‘liq. Badiiy idrok jarayonida oddiy hayotiy hodisa ham yangi ma’no kasb etib, ramziy yoki falsafiy mazmun bilan boyishi mumkin. Ulug‘bek Hamdam she’riyatida poetik idrokning muhim jihati — insonning o‘z-o‘zini anglash jarayoniga alohida e’tibor qaratilishidir. Shoir lirik qahramoni ko‘pincha tashqi olam bilan ichki olam o‘rtasidagi ziddiyatlar qarshisida qoladi. U hayotdagi voqealarni shunchaki kuzatmaydi, balki ularning mohiyatini anglashga, o‘z ruhiy olamida kechayotgan jarayonlarga javob topishga intiladi.

Shoirning “Tangriga eltuvchi isyon” to‘plamidayoq isyon tushunchasining oddiy norozilik yoki qarshilik ma’nosidan kengroq falsafiy mazmun kasb etishi kuzatiladi. Bu yerda isyonni insonning ma’naviy izlanishi, o‘zligini anglashga intilishi va mavjud ruhiy chegaralarni yengib o‘tish istagi sifatida talqin qilish mumkin. To‘plam nomining o‘ziyoq paradoksal poetik munosabatni yuzaga keltiradi: odatda qarama-qarshi tushunchalar sifatida qaraladigan “isyon” va “Tangri” bir semantik maydonda birlashadi. Mazkur holat shoir poetik tafakkurining murakkabligini ko‘rsatadi. Isyon bu o‘rinda ma’naviy inkor emas, balki haqiqatni izlash yo‘lidagi ichki harakat sifatida anglashiladi. Lirik qahramonning izlanishlari insonning o‘z mavjudligiga savol bilan

qarashi, hayotning ma’nosini izohlashga intilishi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, shoirning poetik idrokida an’anaviy diniy-falsafiy tushunchalar zamonaviy insonning ruhiy ehtiyojlari bilan uyg‘unlashadi. Natijada she’riy matnda individual kechinma umuminsoniy mazmun darajasiga ko‘tariladi.

Ulug‘bek Hamdam she’riyatining muhim xususiyatlaridan biri lirik qahramonning murakkab ruhiy olamiga chuqur kirib borishidir. Uning lirik qahramoni tayyor xulosalarga ega, barcha savollarga javob topgan shaxs emas. Aksincha, u izlanayotgan, shubhalanayotgan, iztirob chekayotgan va o‘zligini anglashga intilayotgan inson sifatida gavdalanadi. Shoirning “Seni kutdim” to‘plami nomida mujassamlashgan kutish motivi ham alohida poetik talqinga ega. Kutish dastlab muayyan shaxsga nisbatan sog‘inch yoki intizorlikni ifodalashi mumkin. Biroq falsafiy lirika doirasida bu motiv yanada kengayib, insonning orzu qilingan baxt, muhabbat, ruhiy taskin yoki kutilgan haqiqat sari intilishini anglatishi mumkin. Bunday poetik yondashuvda kutish oddiy vaqt jarayoni emas, balki inson ruhiyatida davom etadigan holatga aylanadi. Lirik qahramon kutish orqali o‘zining ichki ehtiyojlarini, umidlarini va ruhiy bo‘shliqlarini anglaydi. Demak, kutish motivi shoir poetikasida vaqt, xotira, sog‘inch va umid tushunchalarini birlashtiruvchi badiiy vosita sifatida talqin etilishi mumkin.

Shoir lirikasida yolg‘izlik ham faqat jismoniy ajralish yoki ijtimoiy yakkalanish holati sifatida tushunilmaydi. U ko‘proq insonning o‘z ichki dunyosi bilan yuzma-yuz qolishi, o‘zligini anglash jarayonida kechiradigan ruhiy holatini ifodalaydi. Shu jihatdan yolg‘izlik motivi ekzistensial mazmun kasb etadi. Lirik qahramonning ichki monologi, savol-javoblari va ruhiy izlanishlari she’rning psixologik ta’sirchanligini oshiradi. Shoir insonning tashqi harakatlaridan ko‘ra, uning ichki kechinmalariga ko‘proq e’tibor qaratadi. Natijada she’riy asarda ruhiy holatning o‘zi asosiy badiiy voqelikka aylanadi. Ulug‘bek Hamdam she’riyatining poetik xususiyatlarini belgilovchi omillardan yana biri ramziy va metaforik tafakkurdir. Shoir ijodida obrazlar

ko‘pincha o‘zining bevosita lug‘aviy ma’nosidan tashqariga chiqib, qo‘shimcha falsafiy va ruhiy mazmun kasb etadi. Laziz Babaxanov va Z. Qurbonova tomonidan Ulug‘bek Hamdamning “Eski dunyo va yangi men” to‘plamidagi metaforalar lingvopoetik jihatdan o‘rganilgan. Tadqiqotchilar metaforalarni shoirning ichki dunyosi va zamon tashvishlarini ramziy ifodalovchi vosita sifatida baholaydilar.[2] Ushbu kuzatishlar shoir poetikasida metaforaning faqat bezak vazifasini bajarmasligini, balki mazmunni shakllantiruvchi asosiy badiiy mexanizmlardan biri ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, tush, xayol, yo‘l, yomg‘ir, daraxt, tosh va suv kabi obrazlar ham zamonaviy poetik tafakkurda ko‘p qatlamli ramziy ma’nolarni yuzaga chiqarishi mumkin. Ular insonning ruhiy holati, hayotiy tajribasi va borliq bilan munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunda tabiat manzarasi tashqi olam tasviri bo‘lib qolmay, inson ruhiyatining badiiy muqobiliga aylanadi.

Ulug‘bek Hamdamning “Sevgi meni dunyodan asrar” she’rida inson ruhiyatidagi ziddiyatlar, turmush tashvishlari va muhabbatning ma’naviy najotkorlik xususiyati falsafiy-poetik talqin etilgan. She’rning asosiy g‘oyasi insonni moddiy dunyo bosimi va ruhiy iztiroblardan asrovchi kuch sifatida muhabbatni ulug‘lashdan iborat. Shoir dastlab turmushning inson qalbiga yetkazayotgan ruhiy azobini quyidagi misralar orqali ifodalaydi:

“Yuragimni cho‘qiydi har kun

«Turmush» degan bir qora burgut.” [6;110]

Ushbu parchada “qora burgut” metaforasi turmushning og‘ir tashvishlari, kundalik majburiyatlar va inson erkinligini cheklovchi kuchlarning poetik ifodasidir. “Yuragimni cho‘qiydi” birikmasi esa ruhiy iztirobning uzluksizligini anglatadi. Shoir mavhum tushunchani jonli obrazga aylantirish orqali lirik qahramon kechinmalarini ta’sirchan ifodalaydi.

“Birdan tinib qolgan daryoday

Oqib kelib to‘xtab qoldim men!” [6;110]

Misralarida daryo obrazi ramziy-metaforik vazifa bajaradi. Daryoning to‘xtashi lirik qahramonning ruhiy turg‘unligi, hayotiy faolligini yo‘qotishi va ichki tushkunligini anglatadi. Shu tariqa tabiat hodisasi inson ruhiyatining badiiy muqobiliga aylanadi. She’rning g‘oyaviy markazi quyidagi misrada mujassamlashgan:

“Sevgi meni dunyodan asrar.”

Bu misrada sevgi oddiy hissiy kechinma emas, balki insonni moddiy manfaatlar, boylik, mansab va ma’naviy yemirilishdan himoya qiluvchi ruhiy kuch sifatida talqin etiladi. “Dunyo” obrazi esa keng ma’noda insonni o‘ziga qaram qiluvchi dunyoviy manfaatlar timsolidir. “Parvona” obrazi orqali shoir Sharq mumtoz adabiyotidagi ishq an’anasini davom ettiradi. Parvonaning olovda yonishi muhabbat yo‘lidagi fidoyilik va o‘zini bag‘ishlash ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Quyidagi misralarda esa moddiy va ma’naviy qadriyatlar o‘rtasidagi ziddiyat ochiladi:

“Sarvatlarga bermasdan ko‘ngil.

Shavkatlarga bermasdan ko‘ngil...” [6:110]

Shoir “sarvat” va “shavkat” obrazlari orqali boylik hamda shon-shuhratni muhabbat va ruhiy poklikka qarama-qarshi qo‘yadi. Bu poetik ziddiyat asarning falsafiy mazmunini chuqurlashtiradi. She’rning yakunida dastlabki banddagi “qora burgut” obrazining takrorlanishi halqasimon kompozitsiyani yuzaga keltiradi. Bu takror lirik qahramonning muhabbat orqali ruhiy najot topishga intilishiga qaramay, turmush ziddiyatlari hali ham mavjudligini anglatadi.

Shoirning “Bahor” she’rida tabiatning uyg‘onishi bilan inson ruhiyatidagi iztirob, sog‘inch va umid o‘rtasidagi murakkab munosabatlar tasvirlangan. Shoir bahor faslini oddiy tabiat hodisasi sifatida emas, balki insonning ichki dunyosini harakatga keltiruvchi, xotiralarni uyg‘otuvchi ramziy obraz sifatida talqin qiladi. She’rning dastlabki misralaridagi:

“Vahshiy go‘zalligin rangin bayroqdek,

Silkitib tepamda kezadi bahor”. [6;129]

ifodasida bahor jonlantirish va o‘xshatish vositasida gavdalantirilgan. “Rangin bayroq” obrazi bahorning jo‘shqinligi, rang-barangligi va hayotbaxsh qudratini ifodalaydi. Biroq lirik qahramon tabiatdagi ushbu go‘zallikka to‘laqonli quvona olmaydi. Bu holat tashqi olam va ichki ruhiyat o‘rtasidagi ziddiyatni yuzaga chiqaradi.

“Quvona olmayman baralla lekin

Aqalli bolalik davrimga monand.” [6;129]

Misralarida bolalik motivi xotira va ruhiy beg‘uborlik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Lirik qahramon bugungi ruhiy holatini bolalikdagi quvonch bilan qiyoslaydi. “Umrimni kemirar g‘ashlik va sukun” ifodasi esa ichki iztirobning metaforik ifodasi bo‘lib, inson qalbidagi ruhiy charchoqni ochib beradi. She’rda ona obrazi alohida psixologik-estetik ahamiyatga ega:

“Onamni sog‘inib o‘ylayman uzoq:

«Qaniydi, bag‘riga tashlasam o‘zni...»” [6;129]

Ona bag‘ri bu yerda mehr, himoya, xotirjamlik va bolalikdagi beg‘uborlik timsolidir. Lirik qahramonning onani sog‘inishi uning ruhiy tayanchga bo‘lgan ehtiyojini ifodalaydi. Ayniqsa, “yig‘layman ... quruq ko‘z” ifodasi ichki iztirobning tashqi ko‘z yoshlarisiz kechayotganini bildiruvchi kuchli poetik paradoksdir. Asarning eng ta’sirchan poetik nuqtalaridan biri quyidagi qarama-qarshilikda namoyon bo‘ladi:

“Ortimga boqaman: yuragim yoniq,

Ko‘zlari chaqnagan bolaligimdir,

Oldimga boqaman: parishon, so‘niq,

Ko‘zlari huvilloq keksa dilimdir...” [6;130]

Bu misralarda bolalik va keksalik obrazlari antiteza asosida tasvirlangan. Orqaga qarash — yorqin xotiralar va beg‘ubor o‘tmishga murojaat, oldinga qarash esa ruhiy charchoq va hayotiy so‘nish ifodasidir. Shoir inson umrining ikki qutbini qarama-qarshi qo‘yish orqali vaqtning shaxs ruhiyatiga ta’sirini ochib beradi.

“Dilni uyg‘otuvchi pir yo‘q, mehr yo‘q...”

Misrasida esa lirik qahramonning ma’naviy yolg‘izligi aks etadi. “Mehr” va “pir” tushunchalari ruhiy uyg‘onish, ma’naviy yo‘l-yo‘riq va insoniy yaqinlik ehtiyojini anglatadi. She’r yakunidagi:

“Yana men «Erta»ni kutsam jonhalak,

Yana sen «Erta»ga aylansang, dilbar!”

Misralari asarning umid va intizorlik bilan yakunlanishini ta’minlaydi. “Erta” obrazi kelajak, amalga oshmagan orzu va kutilayotgan muhabbatning ramziy ifodasidir. Demak, lirik qahramonning ruhiy iztiroblari orasida ham umid va sevishga bo‘lgan ehtiyoj so‘nmagan. “Bahor” she’rida tabiat va inson ruhiyati parallel tasvirlanib, bahor obrazi xotira, sog‘inch, yoshlik, muhabbat va yangilanish ramziga aylangan. Asarning asosiy poetik xususiyati tashqi olamning go‘zalligi bilan ichki dunyoning g‘amginligi o‘rtasidagi kontrastda namoyon bo‘ladi. Ulug‘bek Hamdam bahor vositasida insonning vaqt, xotira, ona mehri va muhabbatga bo‘lgan ehtiyojini chuqur psixologik-falsafiy talqin etadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Ulug‘bek Hamdam ijodini o‘rganishda milliy adabiy an’analar va zamonaviy poetik izlanishlar munosabatiga ham e’tibor qaratish zarur. O‘zbek mumtoz she’riyatida ishq, hijron, visol, ruhiy poklanish, ilohiy haqiqatni izlash kabi mavzular keng yoritilgan. Zamonaviy shoir ushbu mavzularga murojaat qilar ekan, ularni yangi davr insonining ruhiy ehtiyojlari va dunyoqarashi bilan bog‘laydi. Shoir poetikasidagi yangilanish faqat shakl yoki vazn bilan bog‘liq emas. U, avvalo, borliqni anglash usuli, inson ruhiyatiga munosabat va badiiy obrazning ma’no doirasini kengaytirish bilan belgilanadi. Shu sababli Ulug‘bek Hamdam she’riyatida an’ana va yangilik bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o‘zaro boyitadi.

Foydalanilgan adbiyotlar

1. Hamdam, Ulug‘bek. Tangriga eltuvchi isyon. – Toshkent, 2002; Atirgul. – Toshkent, 2005/2006; Seni kutdim. – Toshkent, 2007.

2. Babaxanov, Laziz; Qurbonova, Z. “Ulug‘bek Hamdamning ‘Eski dunyo va yangi men’ to‘plamidagi metaforalarning lingvopoetik tahlili”. Наука и инновации, 2025, 3-jild, 17-son, 11–13-betlar. DOI: 10.70413/si-v03-i17-s80836.

3. Hamdamov, Ulug‘bek. Badiiy tafakkur tadriji. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002;

4. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. – Toshkent: Fan, 2007; Yangi o‘zbek she’riyati. – Toshkent: Adib, 2012.

5. Ahmedova, Baxtigul Umariddin qizi. “Ulug‘bek Hamdam she’riyatida estetik ideal va lirik qahramon talqini”. Latin American Journal of Education, 2026, 6-jild, 1-son. DOI: 10.5281/zenodo.18273297.

6. Hamdamov U. Eski dunyo va yangi men. Saylanma. - Toshkent, Yangi asr avlodi, 2018.